



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## QADIMGI AJDODLARIMIZNING ZEB –ZIYNATBUYUMLARI TARIXIDAN

**N.T. Toshboyeva, JDPU, texnologik ta'lim  
(masofaviy ta'lim) fakulteti V kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hunarmandchilik mahsulotlaridan zeb ziynatlar haqida ma'lumot berilgan. Muallifning yozishicha qadimgi aholi orasida zeb-ziynat buyumlarini taqish, uni turli xil balolardan asrovchi vosita sifatida tushunishg mavjud bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'zgu, bronza, metall, hunarmandchilik, o'tov, uzuk, Ustrushona, amaliy san'at.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об украшениях из ремесленных изделий. По мнению автора, древние люди носили украшения и понимали их как средство защиты от различных неприятностей.

**Ключевые слова:** зеркало, бронза, металл, ремесло, трава, перстен, Уструшона, прикладное искусство.

**Annotation:** This article provides information about handicraft jewelry. According to the author, ancient people wore jewelry and understood them as a means of protection from various troubles.

**Key words:** Mirror, bronze, metal, craft, grass, ring, Ustrushona, applied art.

Yozma manbalardagi tahlillar, qadimgi ajdodlarimi amaliy san'atining yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Ularda hunarmand, uning ustaxonasi va u yasagan buyumlar nihoyatda qadrlangan. Ming yillar mobaynida temirchi, duradgor, to'quvchi, kosib va tegirmon, juvozxona joylari ham muqaddas sanalغان. O'rganilgan yodgorliklarda hunarmandchilikning zeb-ziynatga oid ko'rinishlari ham yaxshi saqlangan. Ushbu matnda biz, yodgorliklarda o'rganilgan ko'zgular haqida so'z yuritmoqchimiz.

E'tiboringizga havola etilayotgan ko'zgu arxeolog F.E. Toshboyev tomonidan Bekkeldi mozorqo'rg'onida o'rganilgan. Ko'zgu doira shaklida, diametri 10,5 x 10,5 sm o'lchamida bo'lib, sirtiga tomon tekis qavariq shaklida yasalgan. Oyna atrofi valik shaklida sirtidan 0,3 sm o'lchamida to'g'riga qayrilgan. Ichki qismining chetiga qo'lda, uchi o'tkir tig' bilan chizib, aniq o'lchamda bo'lmagan bir-birini ramkasimon tarzda kesib o'tuvchi chiziqchalar tortish orqali bezak berilgan. Ko'zguning sirtiga yaltiroq ishlov berilgan. Mashhur olim N.G. Gorbunovning ta'kidlashicha "... u zamonlarda ko'zgular bronzadan qilinar va ularning yarqiratib

tozalangan yuzasida odam o‘z aksini ko‘rar edi”<sup>106</sup>. Umuman, ushbu ko‘zgu – disk bir paytlar ishlatilgan va egasi vafot etgach, qabrga u bilan birga qo‘yilgan. Shuningdek diskning ichki qismida uchta qandaydir narsani yopishtirish uchun ishlatilgan metall elimning izi saqlanib qolgan. Ushbu izlarning ikkitasi bir-biriga parallel va 4 sm masofada yonma-yon, pastidagisi esa aloxida joylashgan. Bizningcha, yonma-yon turgan eritma ustiga ko‘zgu o‘rnatilgan, alohida turgan eritma ustiga esa ko‘zguning tutqichi mahkamlangan. Umuman, ushbu disk bir paytlar ishlatilgan va egasi vafot etgach, qabrga ich qismi sindirib tashlangan ko‘zgu ekanligiga shubha yo‘q.

Ustrushonada shu paytgacha ham turli xil ko‘rinishdagi ko‘zgular o‘rganilgan. A.A. Gritsina tomonidan Zomin tumani Birlashgan qishlog‘idagi qabrdan bronza ko‘zgu, Zomin tog‘ o‘rmon xo‘jaligi hududidagi qabrdan diametri 10 sm li ko‘zgu bo‘lagi, shuningdek, Zomin shaxarchasidan 20 km sharqda joylashgan Xontepa yodgorligidan ham singan holdagi ko‘zgularni o‘rganilgan. Kurkat skleplarida ham kichik o‘lchamdagi ko‘zgu qayd qilingan<sup>107</sup>. Toshkent vohasidagi Oqtepa, Qovunchitepa va Chungtepadan ham sirti silliq ichi esa sirtiga tomon bo‘rtib chiqqan, atrofi qayrilgan (aylana – valik qilingan)diametri 10 sm o‘lchamidagi metall oyna bo‘lagi qayd qilingan. A.I. Terenojkin ularni milodiy II-IV asrlar bilan davrlagan<sup>108</sup>. Janubiy Tojikistondagi Vaxsh II yodgorlikligida esa ikki dona tekis sirtiga tomon bo‘rtib chiqqan, atrofi ko‘zgu oynasini joylashtirish uchun valik qilingan va to‘g‘riga qayrilgan, diametri 8,7-9,7 sm o‘lchamidagi ko‘zgular qayd qilingan<sup>109</sup>. Bu ko‘zgular ham bizni topilmaga juda o‘xshash. Umuman biz tahlil qilayotgan ushbu oynani II-III asrlar (bunda asosan, ko‘zgu bilan birga qo‘yilgan sopol idishga tayanib) bilan davrlashtirib Qovunchi madaniyatiga oid ko‘zgular qatoriga kiritish mumkin. B.A. Litvinskiy O‘rta Osiyoda o‘rganilgan ko‘zgularni paydo bo‘lishi va ular bilan bog‘liq dafn udumlarini keng tahlil qilgan va tekis tutqichi bor disksimon ko‘zgularni 4 ta tipga, tutqichsiz ko‘zgularni esa 3 ta tipga ajratgan<sup>110</sup>. Ushbu ko‘zguga o‘xshashlari Shimoliy Baqtriyadagi To‘pxona mozorqo‘rg‘onlarida ko‘plab qayd qilingan. Shuningdek ular Zarafshon vohasidagi

<sup>106</sup> Н. Горбунолва. Кўхна Фарғонада. – Т.: “Ўзбекистон”, 1972. – Б. 27.

<sup>107</sup> Грицина А.А. Уструшанские были. – Ташкент: Издательство народного наследия им. А. Кадыри, 2000. –С. 198, 205-206.

<sup>108</sup> А.И. Тереножкин. Холм Ак-тепе близ Ташкента (раскопки 1940г.) Т. 1948.,

<sup>109</sup> Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. –М.: Наука, 1978. – С.87, XVII таблица, рис. 15, 17., XVI таблица, рис. 4.,

<sup>110</sup> Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы...– С. 75-86, 87-90



Lavandoq, Fargʻona vodiysidagi Vorux, Qorabuloq, Borkarboz mozorqoʻrgʻonlaridan ham qayd qilingan<sup>111</sup>.

Oʻrta Osiyoda ushbu koʻrinishdagi disksimon koʻzgular bronza davri (Namozgoh III) dan maʼlum va ular (asosan antik davrda) oʻrta asrlargacha uchraydi. Biroq, ushbu koʻzgulardan shu paytgacha oʻrganilganlarining deyarli barchasi qabrga sindirilgan holda qoʻyilgan. Koʻzgu oynasini sindirish holati deyarli bir xil – asosan uchi oʻtkir asbobda zarb bilan urib, vertikal tarzda (3\4, 2\3 qismi) sindirilgan<sup>112</sup>. Koʻzgularni siniq holatda qoʻyish Volga boʻyi va Ural atroflarida, savromatlar davrida, miloddan avvalgi IV-II asrlarda paydo boʻlgan. Siniq koʻzgular esa sarmatlar qabrlarida koʻp uchraydi.

Oʻrta Osiyoda qabrga sindirilgan koʻzgu qoʻyish odati miloddan avvalgi I va milodiy I asrlarlarda ayniqsa keng yoyilgan. Siniq koʻzgu bilan bogʻliq maxsus udumlar koʻpdan buyon tadqiqotchilar eʼtiborini oʻziga tortib keladi. Bu haqda turlicha qarashlar mavjud. Aniqlanishicha, qabrga qoʻyilgan yoki tashlangan koʻzgu avvalo, qabr oʻgʻirlanayotganligidan ogohlantirish uchun qoʻyilgan. Qadimiy tasavvurlarga koʻra siniq koʻzgu, qabrni buzgan yoki dafn buyumlarini oʻgʻirlagan kishining ekvivalenti hisoblangan. Buyumning ruxi aniqrogʻi soyasi narigi dunyoda inson ruhidan madad olgan. Baʼzi tasavvurlarga koʻra, koʻzguni bir boʻlagini marhum yoniga qoʻshib koʻmish, qolgan yarmini esa tirik qolgan yaqin qarindoshi yoki turmush oʻrtogʻida qoldirish odati ham mavjud boʻlgan. Unga koʻra, oyna boʻlagini olib qolgan marhumning yaqin kishisi vafot etib narigi dunyoga ravona boʻlganda, oʻliklar mamlakatida oʻz yaqinini tez topib olishi uchun koʻzguning qolgan boʻlagi uning yoniga qoʻshib dafn etilgan<sup>113</sup>. Koʻzgu boʻlagini qoʻlida tutib yotgan marhumning holati bu fikrni tasdiqlaydi. Turkiy xalq (xakas) larda, ”odam vafot etgach uning tanasi chirib bitadi. Ruxi esa oʻliklar mamlakatida yashaydi. Marhum buyumlarini yoʻqotish – tarqatib yuborish kerak chunki shu buyumlar ketidan marhum ruhi oʻliklar mamlakatidan qaytib keladi”,- degan tasavvur ham keng yoyilgan<sup>114</sup>.

Ingliz olimi J.Frezer nima uchun qabrda boshqa buyumlar emas, aynan koʻzgular sindirilishini asoslashga harakat qilgan. Uning yozishicha, ibtidoiy odamlar xuddi oʻzlarining ruxi yoki maʼlum hayotiy davri kabi koʻpincha oʻz soyasi yoki qiyofasi aksiga qarab hayratlanganlar. Ular kishinig ruhi uning koʻlanka (soya)si yoki (yuz) qiyofasi aksida joylashadi deb ishonganlar. Shu gʻoyaga asoslanib baʼzi xalqlar kishining ruhi soyasida yashaydi desa, boshqa xalqlarda ruh kishining koʻzgu yoki

<sup>111</sup> Сорокин С.С. Боркорбозский могильник. Л.1961.123., Баруздин Ю.Д. Карабулакский могильник. Фрунзе, 1956 – С.67. Рис.5\3.

<sup>112</sup> Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы... – С.105.

<sup>113</sup> Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы... – С. 106

<sup>114</sup> В.П. Шилов. Калиновский курганны могильник. // МИА. М.: 1959. № 60,– С.436.

suvida aks etayotgan qiyofasi yashaydi deb tushunishgan<sup>115</sup>. Keyinchalik, shu kabi tasavvurlarga asoslanib dafn marosimlarida har xil marosimlarni bajarishgan. Ular orasida inson qiyofasini aks ettiruvchi ko‘zgular bilan bog‘liq amallar keng tarqalgan. Ko‘zgu bilan bog‘liq udumlarning belgisi sifatida nikoh marosimida kelin kuyovni ko‘zguga qaratish, bir-birining aksini ko‘rsatish odatiga dastlabki paytlarda ikkala nikohlanuvchilar ruhini bog‘lovchi, birlashtiruvchi vosita sifatida qaralgan. Oynaning sinishi esa xosiyatsiz sanalib, bu nikohning ajralishi ma’nosini ham anglatgan.

Shunday qilib, ustrushonaliklarning dafn marosimlarida marhum bilan turli xil buyumlar, jumladan zeb-ziynat buyumlari qo‘yib ko‘mish keng yoyilgan. Bu buyumlardan Ustrushona xalqlarida zeb-ziynat yasash va ulardan keng foydalanish urf bo‘lganligi ko‘rinadi. Bu holatlar, ya’ni insonning ikkinchi, abadiy hayoti, narigi dunyoda foydalanadigan kundalik hayotiy va ish faoliyati bilan bog‘liq buyumlarning jasad bilan birga qo‘yilishi konservativ xususiyatga ega bo‘lib, bunday udumlar O‘rta Osiyo xalqlarida islomgacha keng yoyilgan. Jasadlar bilan birga ko‘zgularni ham uchrashi birinchidan, undan foydalanish hayotda keng yoyilganligini anglatga, ikkinchidan, u magik tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Ko‘zguni qabrga qo‘yish esa, marhum ruhining tiriklar orasida paydo bo‘lmasligi uchun qo‘llanilgan eng ommaviy usullardan biri bo‘lgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Н. Горбунолва. Кўхна Фаргонада. – Т.: “Ўзбекистон”, 1972. – Б. 27.
2. Грицина А.А. Уструшанские были. – Ташкент: Издательство народного наследия им. А. Кадыри, 2000. –С. 198, 205-206.
3. А.И. Тереножкин. Холм Ак-тепе близ Ташкента (раскопки 1940г.) Т. 1948.,
4. Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. –М.: Наука, 1978. – С.87.
5. Сорокин С.С. Боркорбозский могильник. Л.1961.123., Баруздин Ю.Д. Карабулакский могильник. Фрунзе, 1956 – С.67.
6. В.П. Шилов. Калиновский курганны могильник. // МИА. М.: 1959. № 60,– С.436.
7. Frazer J.G. Taboo and the perils of the soul. London, 1922 / The golden B ough. II / .pp.82-92.

---

<sup>115</sup> Frazer J.G. Taboo and the perils of the soul. London, 1922 / The golden B ough. II / .pp.82-92.